



MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



TALABALARNING AXLOQIY SHAKLLANISHI SHAXS TARAQQIYOTI POYDEVORI SIFATIDA

Ismailova Dilbar Ruzmatovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada axloq-ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy- ruhiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyati, muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: axloq, ijtimoiy hodisa, jamiyat, taraqqiyot, axloq, millat, mohiyat, ma'naviy-ruhiy.

KIRISH

«Axloq» ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, uning mohiyati shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi. «Axloq» tushunchasi oila fikri asosida tartibga solinuvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Qadimdan ijtimoiy- falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asarlarda ushbu tushuncha turli ko'lamda ishlatib kelingan. Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir) • ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib- qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hech kimning ko'rsatmasi, hech qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan burch shakliga kiradi. Axloq talablarining bajarilishi faqat ma'naviy ta'sir ko'rsatishp shakllari doirasida yuz beradi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda axloq- jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullaigan xulq-odob normalari majmuidir. Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat va ma'naviyat element»Axloq» ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, uning mohiyati shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qondalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi [2].

Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatleri majmuidan iborat.

Sifat alohida bir shaxsiing muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir. Fazilat-alohida shaxs, el, elat, xalqqa taalluqli bo‘lgan ijobiy-axloqiy sifatlar majmui. Yuqorida keltirilgan barcha ijobiy xislatlar talaba shaxsini ma’naviy-axloqiy darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Talabalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish - aniq maqsadga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi [3]:

1. Talabalarga ma’naviy-axloqiy me‘yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar berish.

2. Talabalarda ma’naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma’naviy-axloqiy ongini qaror toptirish.

3. Talabalarda ijobiy mazmundagi ma’naviy-axloqiy sifatlar (bilimlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehr-muhabbat, vatanga, xalqqa muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat va hokazolarni) qaror toptirish.

4. Talabalarda ma’naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.

5. Talabalar ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish. Talabalar ma’naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi tarixiy-ob‘ektiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlarning o‘zaro hamkorlik, aloqa doiralarning kengayishi takomillashuviga ko‘rsatiladigan ta’sirning ijobiy mo‘tadil holatda bo‘lishini ta’minlashda ko‘rinadi. Ma’naviy-axloqiy sifatning qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro‘y beradi: talabaning ma’naviy-axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo‘lgan yondashuvida namoyon bo‘ladi; talabaning ma’naviy-axloqiylik darajasi u mansub bo‘lgan jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti darajasiga bog‘liq; talabaning ma’naviy-axloqiy kamoloti ob‘ektiv va sub‘ektiv shart-sharoitlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi natijasida vujudga keladi; talabaning ma’naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishida ijobiy natijalarga olib keladi. Talabalarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirish quyidagi tamoyillarga muvofiq yo‘lga qo‘yiladi [4]:

1. Ma’naviy- axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-g‘oyaviy asosga ega ekanligi. Ushbu tamoyil ma’naviy-axloqiy ta’lim va tarbiyaning yagona g‘oya O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, milliy mafkura g‘oyalarini talabalar o‘rtasida targ‘ib etishda ifodalanadi.

2. Ma’naviy- axloqiy ta’lim va tarbiyaning izchil, tizimli, uzluksiz tashkil etilishi. Ushbu tamoyil talabalarga ma’naviy-axloqiy bilimlar berish, ularda ijtimoiy-amaliy faoliyat ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, ma’naviy-axloqiy ta’lim va tarbiya ishining tizimlilikini ta’minlash, bir maromda doimiy tashkil etilishiga erishishida namoyon bo‘ladi.

3. Ma’naviy-axloqiy ta’lim-tarbiya g‘oyalarining aniq maqsadga yo‘naltirilganligi. Talabalar o‘rtasida tashkil etilayotgan ma’naviy-axloqiy tarbiyani yo‘lga qo‘yishdan ko‘zlangan yagona maqsad ularda ma’naviy-axloqiy sifatlar,